

Navoiy shahridagi holat yuzasidan rasmiy bayonot

// 21.07.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiy-shahri-hududini-changsimon-tutun-qoplagani-yuzasidan->



Joriy yilning 13-19 va 21-iyul kunlari Navoiy shahri hududini changsimon tutun qopladi. Aholi orasida bu vaziyat «Navoiyazot» AJ faoliyati bilan bog'liq degan asossiz fikrlar keng muhokamaga sabab bo'lmoqda.

Ushbu holat yuzasidan quyidagilarni ma'lum qilamiz:

Korxona tomonidan atmosferani ifloslantiruvchi tashlamalar miqdorining me'yoridan oshmasligini nazorat qilish maqsadida 3, 23, 25-sexlarga 3 dona avtomatik gazoanalizator, jamiyatga qarashli sanatoriy-profilaktoriy hamda boshqarma hududiga 2 dona statsionar postlar o'rnatildi va bunga "Navoiyazot" AJ mablag'lari hisobidan 6 milliard 186 million so'm mablag' sarflandi. Shuningdek, atmosferaga manbalardan tashlanuvchi tashlamalarni tutib qolish maqsadida 3-sex donadorlash minorasiga 1 dona skrubber, 23-sex donadorlash minorasiga 4 dona skrubberlar o'rnatildi.

Korxona hududi va atrofini nazorat qilish maqsadida 500 tadan ortiq zamonaviy kuzatuv kameralari o'rnatilgan. Yer sathidan 120 metr balandlikdagi 10-15 km masofadagi jarayonni yaqqol ko'rish imkoniyatini beruvchi kamera tasvirlaridan ko'rish mumkinki, atmosferaning ifloslanishiga sabab bo'lgan changsimon tutun korxona hududidan tarqalmagan.

Tutun g'arbiy hududdan havoga ko'tarilib, shamol yo'nalishi bo'ylab "Navoiyazot" AJ usti va atrofidan o'tib keyin butun shaharga tarqalgan.

Navoiy viloyati ekologiya boshqarmasi tomonidan 19-iyul kungi holat yuzasidan bildirilgan ma'lumotda korxonaga qarashli sanitar laboratoriya xodimlari bilan hamkorlikda tahlil o'tkazilgani aytilgan. Aslida esa o'rganish ishlaridan korxona vakillari xabardor etilmagan. Shuningdek, atmosfera tarkibida ammiak 1,4 barobar hamda vodorod sulfidining 16,8 barobar me'yordan yuqoriligi aniqlanganligi qayd etilgan.

Ta'kidlash lozimki, ammiak ham, vodorod sulfidi ham rangsiz, gazsimon modda bo'lib, ko'zga ko'rinmaydi. Navoiy shahrini changsimon tutun qoplaganini esa aholi ko'rib, guvohiga aylandi.

19-iyul kuni soat 7:30-8:00 oralig'ida korxona mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv natijasida havo tarkibida ammiak mavjud emasligi aniqlangan. Korxonaga qarashli tiomochevina sexi joriy yilning fevral oyidan buyon faoliyat yuritmayapti. Shu bois, atmosferaga vodorod sulfidi chiqqanligi haqidagi ma'lumot mutlaqo asossiz.

Uglerod ikki oksidi esa ko'mirning chala yonishi natijasida hosil bo'ladi, «Navoiyazot» Ajda esa mahsulot ishlab chiqarishda ko'mirdan foydalanilmaydi.

Ta'kidlash joiz, korxona tomonidan ekologik xavfsizlik masalasiga birinchi galdagi ustuvor vazifa sifatida qaraladi va atmosferaga chiqariladigan tashlamalar miqdorini keskin kamaytirishga yo'naltirilgan aniq, muddatli chora-tadbirlar belgilanib, ular asosida bosqichma-bosqich ish olib borilmoqda.

Shundan kelib chiqib, «Navoiyazot» Ajning atmosferani ifloslantirayotgan changsimon tutunga hech qanday aloqasi yo'qligini ma'lum qilamiz.

Shu munosabat bilan OAV hamda jamoatchilik vakillaridan noto'g'ri va asoslanmagan ma'lumotlarni tarqatmaslikni so'rab qolamiz.

“O'zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati